# JAMOAT TRANSPORTI SOHASIDA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA ULAR IJROSINING YO'LOVCHI TASHISH HAJMIGA TA'SIRI

**Ozodboyeva Zebo Zohidjon qizi, , TDTrU magistranti,**

**Ozodboyeva@bk.ru (99) 989 22 88**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda jamoat transporti sohasida davlat siyosati ustuvorligini ta'minlash maqsadida qabul qilingan normative-huquqiy hujjatlar va ularning bugungi kundagi ijrosi, yo'lovchi tashish hajmiga ta'siri va shunga o'xshash xatti harakatlar majmui ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** jamoat transporti, normativ-huquqiy hujjatlar, tashish hajmi, PQ, PF

**Аннотация.** В данной статье рассматривается совокупность действий, направленных на обеспечение приоритетности государственной политики в сфере общественного транспорта на современном этапе. Анализируются принятые нормативно-правовые документы, их текущая реализация, влияние на объемы пассажирских перевозок, а также связанные с этим процессы.

**Ключевые слова:** общественный транспорт, нормативно-правовые документы, объем перевозок, ПП, УП.

**Annotation.** This article examines the set of measures aimed at ensuring the priority of state policy in the field of public transport at the present stage. It analyzes the normative legal documents adopted for this purpose, their current ***implementation, their impact on the volume 22of passenger transportation, and other*** related actions.

**Keywords:** public transport, normative legal documents, transportation volume, Presidential Resolution (PR), Presidential Decree (PD).

**Kirish.** Jamoat transporti va unda ko'rsatilayotgan xizmatlar yillar kesimida turli davr va o'zgarishlarga yuz tutdi. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Miromonovich 21-noyabr 2023-yildagi bayonotiga ko'ra "So'nggi yillarda metro tarmog'ini kengaytirish maqsadida qo'shimcha 32 kilometr liniya qurildi va 21 ta yangi bekat foydalanishga topshirildi. 15 ta zamonaviy metro poyezdi yetkazib berildi. Yangi yo'nalishlar Toshkent shahrining Yashnobod, Mirobod, Sergeli, Yangihayot va Yunusobod tumanlari orqali o'tdi, bu esa aholining qatnovini yengillashtirdi. Bugungi kunda metro yo'lovchilari soni besh baravarga oshdi, kunlik qatnovlar 720 mingga yetdi. Tig'iz soatlarda poyezdlar harakati oralig'i 5-7 daqiqadan 2 daqiqagacha qisqartirildi. Davlat rahbari metro xizmatlari sifatini oshirish, harakat qulayligi va bekatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Vagon parkini yangilash, eskirgan vagonlarni almashtirish va ikki daqiqalik intervalni ta'minlash zarurligi ta'kidlandi." Undan tashqari, Toshkent metropoliteni o'z tarmog'ini Toshkent traktor zavodi (TTZ) hududigacha kengaytiradi, unga 10 ta yangi stansiya qo'shiladi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-mart kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan qurilish va shaharsozlik loyihalari bilan tanishish chog'ida ma'lum qildi. "Toshkent metropoliteni"ni TTZ hududigacha kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Avvalroq prezident mutasaddilarga dastlabki takliflarni qayta ko'rib chiqish va muqobil variantlarni o'rganish bo'yicha topshiriq bergan edi. Yangilangan reja asosida Chilonzor liniyasi qo'shimcha 10 ta stansiyani o'z ichiga olgan holda TTZ hududigacha uzaytiriladi. Ushbu yangi filial 30 ta mahalla va 148 ming aholiga xizmat ko'rsatadi. Yangi Toshkentga olib boruvchi yangi yo'nalish qurilishi rejalashtirilgan. Bu yo'l 21 km uzunlikda bo'lib, 9 ta bekatni o'z ichiga oladi."O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati metropolitenni 2025 yilgacha rivojlantirish rejasini taqdim etdi. Toshkent

metropolitenining hozirgi uzunligi 36 kilometrni tashkil etadi, 10 kilometrlik yo‘l qurilishi davom etmoqda. So‘nggi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko‘rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo‘nalishlari tarmog‘ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

**Asosiy qism.** 2019 yilda transport xizmatlarining sifatliligi va ommabopligini ta’minlashga yo‘naltirilgan yagona transport siyosatini yuritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647-son Farmonida Vazirlik avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo transportlari, metropoliten, shuningdek yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha davlat boshqaruvi organi hisoblanishi belgilab qo‘yildi.

Transport vazirligiga transport sohasida davlat siyosatini amalga oshirish vakolati berilgan.

Mazkur qaror bilan jamoat transportida tubdan o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirishga turtki bo‘ldi.

**Jamoat transporti sohasida davlat siyosati ustuvorligini ta’minlash maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yili 06 martdagi “Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4230-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yili 07 maydagi “Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish faoliyatini tartibga solishni yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yili 02 fevraldagi “Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-111-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yili 07 iyuldagi “Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo‘nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish to‘g‘risida”gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yili 08 iyuldagi “Toshkent shahar jamoat transporti samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-313-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yili 16 fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yili 22 yanvardagi Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida “Samarqand shahar jamoat transporti uchun elektr avtobuslar xarid qilish hamda u bilan bevosita bog‘liq infratuzilmani yaratish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-37-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yili 25 martdagi “Jamoat transportini moliyalashtirish va sifat jihatdan nazoratini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-139-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22 maydagi “Yo‘lovchilarni avtobusda tashish xavfsizligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 424-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30 iyuldagi “Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash

yuzasidan davlat xizmatlari koʻrsatishning maʼmuriy reglamentini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 636-sonli qarori;

- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25 noyabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yoʻlovchi tashishda yoʻl kira haqini toʻlashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish toʻgʻrisida”gi 948-sonli qarori;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 03 iyundagi “Xalqaro avtobusda yoʻlovchilarni tashishni tashkil etish” investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 348-sonli qarori;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 08-oktabrdagi “Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 630-sonli qarori;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 02-yanvardagi “Avtomobil transporti sohasida davlat ishtirokidagi korxonalarga xususiy sektorni jalb qilish toʻgʻrisida”gi 2-sonli qarori;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 06-apreldagi “Toshkent shahrida transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 164-son qarori;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-sentyabrdagi “Shahar yoʻlovchilar transportida ayrim toifadagi fuqarolarga bepul yurish huquqini beruvchi imtiyozli transport kartalarini berish yuzasidan davlat xizmatlari koʻrsatishning maʼmuriy reglamentini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 507-sonli qarori;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-martdagi “Jamoat transportini moliyalashtirishning yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 116-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi “Tramvay va trolleybus transportida yo‘lovchilarni tashish tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 664-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi “Avtomobil transportida yo‘lovchi va yuk tashish faoliyatini litsenziyalash hamda yo‘nalishlarni biriktirish bo‘yicha ochiq tenderlarni elektron tarzda tashkil etish va o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 465-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 04-noyabrdagi “Ozgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar temir yo‘l transportida yoki shaharlararo avtobusda bepul foydalanish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 733-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-noyabrdagi “Transport infratuzilmasini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 757-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-oktabrdagi “Toshkent shahrida jamoat transportida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimlari imkoniyatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 726-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi “Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 718-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-dekabrdagi “Avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 855-sonli qarori.

Jamoat transporti uchun 2025 yil yanvar-may oylarida jami 358 dona avtobuslar xarid qilinib, hududlarga olib kelingan.

Ma’lumot uchun: Jizzax va Navoiy viloyatlarida 60 tadan, Toshkent viloyati 49 ta, Namangan va Xorazm viloyatlariga 30 tadan, Qashqadaryo 26 ta, Farg‘ona 24 ta, Buxoro 22 ta, Sirdaryo 14 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasi 13 ta avtobuslar xarid qilingan.

Bundan tashqari, hududlardagi salohiyatli tadbirkorlar tomonidan joriy yilning yanvar-mart oylarida jami 242 dona mikroavtobuslar xarid qilingan.


Tanlov g‘olib bilan shartnoma tuzilib, import shartnoma ekspert xulosasi olish uchun “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKdan ijobiy xulosa olingan, joriy yili 16-may kuni 15 foiz dastlabki mablag‘lari ajratildi. Shu bilan birga, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag‘lari hisobiga Nukus (50 ta) va Namangan (50 ta) shaharlarida jamoat transporti uchun jami 100 ta elektrobus xarid qilish loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish yuzasidan xorijlik va mahalliy konsultantlar bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Hamkor bilan qilingan ish rejasiga asoslanib, texnik-iqtisodiy asos ishlab chiqilishining yakunlanishi 2025 yilning avgust oyida bo‘lishi belgilangan. Shuningdek, harakat tarkibiga bo‘lgan talabni aniqlash hamda parkni yangilash bo‘yicha o‘rganishlar olib borildi.

Unga ko‘ra, barcha hududlarda MFY va aholi yashash punktlarini muntazam yo‘nalishlar bilan qamrab olish yuzasidan o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasiga ko‘ra jami 23 206 ta (11 120 ta avtobus va 12 086 ta mikroavtobus) jamoat transporti vositasiga bo‘lgan talab aniqlangan. Shundan, “Brutto-shartnoma” yo‘nalishlariga 1 500 ta avtobus hamda shahar atrofi, tumanlararo va tuman ichki yo‘nalishlari uchun 9 620 ta avtobus va 12 086 ta mikroavtobus talab etiladi. Ma’lumot uchun: Aholi yashash punktlarini muntazam yo‘nalishlar bilan qamrab olish uchun yangi

yo‘nalishlar tashkil etish, M1 toifali avtotransport vositalarini M2 va M3 toifali avtotransport vositalariga almashtirish hamda Nukus va viloyat markazlarida “Brutto-shartnoma” yo‘nalishlarini tashkil etish hisobga olingan.

2025 yilda 700 ta avtobus, 200 ta elektrobus, 2026 yilda 650 ta avtobus, 250 ta elektrobus, 2027 yilda 600 ta avtobus, 400 ta elektrobus, 2028 yilda 800 ta avtobus, 280 ta elektrobus, 2029 yilda 900 ta avtobus, 330 ta elektrobus, 2030 yilda 1 000 ta avtobus va 350 ta elektrobus xarid qilish rejalashtirilgan.

Hozirda amaldagi harakat tarkibi bilan jamoat transportida kunlik o‘rtacha 5,6 mln nafar yo‘lovchi tashish imkoniyati mavjud.




**Jamoat transportida tashiladigan yo’lovchilarning ulushi.**

Avtobusda 3,0 mln, mikroavtobusda 935,0 ming va yengil avtotransport vositalarida (DAMAS) 1,7 mln nafar yo‘lovchidan to‘g‘ri keladi.

Harakat tarkibiga bo‘lgan talab to‘liq ta’minlansa kunlik o‘rtacha 11,0 mln nafar yo‘lovchi tashish imkoniyati yaratilib, hozirgi holatga nisbatan 2 barobarga oshadi.

Jamoat transporti qamrovi:

Bugungi kunda tashkil etilgan muntazam yo‘nalishlar bilan MFY va aholi yashash punktlari quyidagicha qamrab olingan:

- Jami MFYlar soni (Toshkent shahridan tashqari) 8 867 tani tashkil etadi;

Shundan:

-36 % (3 192 tasini) MFYlarni faqat avtobus qatnovlari bilan qamrab olingan;

- 45 % (3 943 tasini) MFYlarni avtobus qatnovi bilan parallell ravishda mikroavtobus qatnovlari bilan qamrab olingan;

- 98 % (8 675 tasini) MFYlarni avtobus, mikroavtobus hamda DAMAS avtotransport vositalari qatnovlari bilan qamrab olingan;

- 100 % (8 867 tasini) MFYlarni avtobus, mikroavtobus, DAMAS avtotransport vositalari hamda yo‘nalishsiz taksi xizmatlari bilan qamrab olingan.

2024 yil davomida jami 107 ta yangi yo‘nalishlar (59 ta avtobus va 48 ta yo‘nalishli taksi) tashkil etildi.

Shundan:

- Shahar: 40 ta (40 ta avtobus);

- Shahar atrofi: 64 ta (19 ta avtobus va 45 ta yo‘nalishli taksi);

- Viloyat ichi shaharlararo: 3 ta (3 ta yo‘nalishli taksi).

M1 toifali avtotransport vositalari joylashtirilgan 67 ta yo‘nalish M2 toifali avtotransport vositalariga o‘zgartirildi. Bunda, M1 toifali 1412 ta avtotransport vositalari o‘rniga M2 toifali 505 ta va M3 toifali 54 ta avtotransport vositalari joylashtirildi.

Qamrov darajasini oshirish maqsadida joriy yil davomida quyidagilar amalga oshiriladi:

1. M1 toifali avtotransport vositalari joylashtirilgan 147 ta yo‘nalishlarini maqbul qilish orqali harakat tarkibini M2 va M3 toifali avtotransport vositalariga o‘zgartirish.

2. Yangi xarid qilinadigan mikroavtobuslar va shahar ichi “brutto-shartnoma” yo‘nalishlaridan chiqariladigan avtobuslar hisobiga shahar atrofidagi yo‘nalishlardagi M1 toifali yo‘nalishlarni M2 va M3 toifaga o‘tkazish.

3. “Viloyatlararo-shaharlaro yo‘nalishlarni tashkil qilish.

Bunda:

- Samarqand–Shahrisabz, Samarqand–Qarshi, Qarshi–Termiz, Nukus–Buxoro (Urganch orqali), Buxoro sh.–Qarshi sh., Buxoro sh.–Termiz sh., Buxoro sh.–Xiva sh., Samarqand sh.–Buxoro sh., Buxoro sh.–Shahrisabz sh. yo‘nalishlarida avtobus qatnovlari;

- Andijon–Toshkent, Farg‘ona–Toshkent va Namangan–Toshkent yo‘nalishlarida mikroavtobus qatnovlarini tashkil etish.

4. Toshkent shahri bilan Bo‘stonliq tumanining tog‘li hududlarini bog‘lovchi avtobus qatnovlari hamda tog‘li hududlarda mikroavtobus qatnovlarini tashkil etish.

5. Toshkent viloyatini Toshkent shahri bilan bog‘lovchi jamoat transporti yo‘nalishlarini rivojlantirish maqsadida “Ekspress” avtobus qatnovlarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytkanda, bugungi kunga qadar qabul qilingan barcha normativ huquqiy hujjatlar, PQ, PF, jamoat transporti rivojida asosiy o’rinni egallab kelmoqda. Buning natijasini, yo’lovchi tashish hajmi oshganidan va yangi tarkib sotib olinib jamoat transportida harakatlanish yanada qulaylashtirilganidan ko’rish mumkin.

**Asosiy ilmiy manbalar:**

1. Vuchic, Vukan R. Urban Transit Systems and Technology. Hoboken: John Wiley & Sons, 2007.

2. Vuchic, Vukan R. Urban Transportation: Operations, Planning and Economics. Wiley, 2005.

3. Cervero, Robert. Transport and Urban Development. London: Routledge, 2019.

4. Kittelson & Associates. Transit Capacity and Quality of Service Manual. 3rd Edition. Transportation Research Board (TRB), 2013.

5. Litman, Todd. Evaluating Public Transit Benefits and Costs. Victoria Transport Policy Institute, 2023.

6. Preston, J. Public Transport: Its Planning, Management and Operation. Elsevier, 2010.

7. Rodrigue, Jean-Paul. The Geography of Transport Systems. Routledge, 2020.

8. Hensher, David & Button, Kenneth (eds.). Handbook of Transport Systems and Traffic Control. Elsevier, 2014.

9. Pojani, D., & Stead, D. *The Urban Transport Crisis in Emerging Economies*. Springer,2017.

**Internet manbalar:**

1. “The perceived attractivenness of public transportation” master thesis, 2018, pdf, 8-bet.
2. https://yuz.uz/en/news/metropolitenda-xizmatlar-sifatini-oshirish-boyicha-takliflar-taqdimot-qilindi?utm_source=chatgpt.com
3. https://kun.uz/en/news/2025/03/20/tashkent-metro-to-extend-to-ttz-area-with-10-new-stations
4. https://zamin.uz/en/uzbekistan/152361-a-21-kilometer-metro-line-will-be-built-to-lead-to-new-tashkent.html
5. https://www.tashkenttimes.uz/national/3698-tashkent-metro-length-to-be-quadrupled-by-2025
6. https://qalampir.uz/en/news/bugundan-toshkent-metrosida-ona-bola-khonasi-va-xozhatkhona-ishga-tushiriladi-56078

7. https://www.tashkenttimes.uz/national/11845-govt-updates-tashkent-metro-rules-for-carriage?utm_source=chatgpt.com
8. https://www.uzdaily.uz/en/restrooms-to-be-installed-at-nine-stations-of-the-tashkent-metro/
9. https://tashkent.uz/en/opportunities/234
10. https://www.tashkenttimes.uz/national/11845-govt-updates-tashkent-metro-rules-for-carriage
11. https://www.uzdaily.uz/en/toshkent-metro-the-metro-employees-are-monitoring-the-category-of-passengers-with-disabilities/